



THE INTERPRETATION OF THE “PAX AMERICANA” CONCEPT BY NEOCONSERVATIVE THINK TANKS

Abrar Salokhiddinovich Turaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science

Jizzakh State Pedagogical University

ijtimoiy2017@mail.ru

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Pax Americana, neoconservatism, think tanks, U.S. foreign policy, global hegemony, democratic values, geopolitical strategy, Project for the New American Century (PNAC), American Enterprise Institute (AEI), Hudson Institute, international security, benevolent hegemony, international order.

Received: 26.01.26

Accepted: 27.01.26

Published: 28.01.26

Abstract: At the end of the 20th and the beginning of the 21st century, the concept of “Pax Americana,” or “American peace,” emerged as a strategic and ideological model in U.S. foreign policy. This concept aims to justify the United States’ global leadership mission through the promotion of democratic values, military superiority, and international security. Representatives of the neoconservative ideology actively supported this idea, providing it with theoretical justification and promoting its implementation through practical foreign policy. In this article, the main ideological approaches advanced by neoconservative think tanks, their conceptual and strategic positions, as well as the meaning of “Pax Americana” in neoconservative thinking are analyzed.

“PAX AMERICANA” KONSEPSIYASINING NEOKONSERVATIV “AQL MARKAZLAR” TOMONIDAN TALQIN ETILISHI

Abrar Saloxiddinovich Turayev

Dotsent, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jizzax davlat pedagogika universiteti

ijtimoiy2017@mail.ru

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: “Pax Americana”, neokonservatizm, aql markazlari (think tanks), AQSh tashqi siyosati, global gemonlik, demokratik qadriyatlar, geosiyosiy strategiya,

Annotatsiya: XX asr oxiri va XXI asr boshlarida AQSh tashqi siyosatida “Pax Americana”, ya'ni “Amerika tinchligi” konsepsiyasi strategik-ideologik model

Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC), Amerika tadbirkorlik instituti (AEI), Gudzon instituti (Hudson Institute), xalqaro xavfsizlik, muruvvatli gegemonlik (benevolent hegemony), xalqaro tartibot.

sifatida shakllandi. Mazkur konsepsiya AQShning global yetakchilik vazifasini demokratik qadriyatlar, harbiy ustunlik va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash orqali asoslashga qaratilgan. Neokonservativ mafkura vakillari ushbu g'oyani faol qo'llab-quvvatlab, uni nazariy jihatdan asoslab bergan hamda uni amaliy siyosatga tadbiq etishda "aql markazlar" muhim vositaga aylangan. Mazkur maqolada ushbu "aql markazlar" tomonidan ilgari surilgan asosiy g'oyaviy yondashuvlar, ularning konseptual va strategik pozitsiyalari tahlil qilinadi hamda neokonservativ tafakkurda "Pax Americana"ning mazmuni ochib beriladi.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ «ПАХ АМЕРИКАНА» НЕОКОНСЕРВАТИВНЫМИ «МОЗГОВЫМИ ЦЕНТРАМИ» США

Аббар Салохиддинович Тураев

Доцент, доктор философии (PhD) по политическим наукам

Джизакский государственный педагогический университет

ijtimoiy2017@mail.ru

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Pax Americana, неоконсерватизм, мозговые центры, внешняя политика США, глобальное господство, демократические ценности, геополитическая стратегия, проект «Новый американский век» (PNAC), Американский институт предпринимательства (AEI), Институт Хадсона, международная безопасность, доброжелательное господство, международный порядок.

Аннотация: В конце XX – начале XXI века в внешней политике США сформировалась концепция «Pax Americana», или «Американский мир», как стратегико-идеологическая модель. Данная концепция направлена на обоснование глобального лидерства США через продвижение демократических ценностей, военного превосходства и обеспечение международной безопасности. Представители неоконсервативной идеологии активно поддерживали эту идею, теоретически обосновывали её и продвигали через реализацию внешнеполитических стратегий с участием «мозговых центров». В статье анализируются ключевые идеологические подходы, выдвигаемые данными аналитическими структурами, их концептуальные и стратегические позиции, а также раскрывается содержание «Pax Americana» в контексте неоконсервативной мысли.

Kirish. XX asr oxiri-XXI asr boshiga kelib gegemonlik mafkurasi yangi shaklda, ya'ni neokonservativ yondashuv orqali o'z ifodasini topa boshladi. Neokonservativ "aql markazlari" global yetakchilikni mustahkamlash uchun tarixiy gegemonlik tamoyillarini qayta ishlab chiqib, ularni demokratik qadriyatlar, xavfsizlik siyosati va xalqaro tartibni boshqarish konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirmoqda.

Neokonservativ "aql markazlari" ta'kidicha, "turli mafkuraviy poligonlar ta'sirida yuz berayotgan hatarli jarayonlarning mohiyatini to'liq anglash darajasining pastligi" va zarur bilim, yaxlit tasavvurning shakllanmaganligi, ayrim davlatlar va jamiyatlarning radikal va destruktiv g'oyalarga berilish xavfini oshiradi. Shu sababli, bu markazlar global barqarorlikni saqlash va demokratik qadriyatlarni targ'ib qilish uchun AQShning yetakchilik roli, ya'ni gegemonligini mustahkamlashni ustuvor vazifa sifatida ko'radi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi. Mazkur maqolaning tadqiqot obyekti AQShdagi neokonservativ yo'nalishdagi "aql markazlar" faoliyati va ularning "Pax Americana" konsepsiyasini shakllantirish hamda talqin etishdagi nazariy va amaliy yondashuvlaridir. Boshqacha aytganda, tadqiqot AQSh tashqi siyosatida "Pax Americana" g'oyasining mafkuraviy asoslari va uni asoslovchi neokonservativ ilmiy-siyosiy doiralar faoliyatini o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuv va metodlarga tayangan. Jumladan, birinchidan, siyosiy-falsafiy tahlil – "Pax Americana" konsepsiyasining ideologik ildizlarini (liberal g'oyalar, hegemonlik nazariyasi, demokratik ekport konsepsiyasi) tahlil qilish. Ikkinchidan, institutsional tahlil – neokonservativ "aql markazlar" (masalan, American Enterprise Institute, Project for the New American Century, Heritage Foundation, Hudson Institute, Center for Security Policy) faoliyatini, ularning siyosiy ta'sir mexanizmlarini o'rganish. Uchinchidan, tarixiy-qiyosiy yondashuv – "Pax Americana" konsepsiyalarining evolyutsiyasini qiyoslab, ularning zamonaviy geosiyosiy mazmunini ochib berish va to'rtinchidan, tizimli yondashuv – neokonservativ mafkura, AQSh tashqi siyosati va xalqaro tizimdagi birtutblik (unipolyar) holat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash.

Manbalar tahlili. Amerikashunos T.A.Shakleina[1,2] AQSh global gegemonligi mafkurasining uch asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatadi:

1. "Qat'iy" global hukmronlik konsepsiyasi;
2. Liberal-konservativ yetakchilik konsepsiyasi;
3. Liberal-realistik - "yumshoq" yetakchilik konsepsiyasi.

Ushbu yo'nalishlar AQShning hozirgi va kelajakdagi global rolga doir umumiy yondashuvlarni ifodalaydi. Bu qarashlar neokonservativ gegemonlik tarafdorlari, xususan, R. Kagan, C.Krauthammer va Makkfolning ishlarida aniq aks etadi. Shu bilan birga, amaliy

siyosatchilar – P.Vulfovits, D.Cheyne, D.Rumsfeld kabi neokonservatorlar ham neokonservatizmni qo‘llab-quvvatlagan shaxslar sifatida tanilgan.

U.Kristol va R.Kaganlarning asosiy fikrlariga ko‘ra Sovet Ittifoqi (SSSR) tarqab ketgan bo‘lsa-da, AQShning asosiy strategik maqsadlari o‘zgarmasligi kerak. Yani, Sovuq urush davrida shakllangan global xavfsizlik va tartibni saqlash vazifasi AQSh uchun davom etishi shart. Kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy tahdidlarni kutish o‘rniga, AQSh ularning paydo bo‘lish imkoniyatlarini oldini olish uchun faol choralar ko‘rishi lozim. Bu AQShning global siyosatidagi proaktiv pozitsiyasini anglatadi. Ular AQShning global rolini, xususan, xalqaro tartibni saqlash va boshqarishdagi yetakchiligini eng muhim vazifa deb biladilar. Chunki, agar AQSh bunday tartibni saqlay olmasa, xalqaro maydonda AQSh manfaatlari va qadriyatlarini aks ettirmaydigan boshqa kuchlar tomonidan yangi tartib o‘rnatilishi muqarrar bo‘ladi. Bu nuqtayi nazar nafaqat xavfsizlik, balki demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va bozor iqtisodiyotining kengayishiga asoslangan global tartibni himoya qilishga ham qaratilgan. Shu bois, “muruvvatli gegemonlik” AQShning dunyodagi yetakchilik roli nafaqat kuchga, balki axloqiy mas’uliyatga asoslangan bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

R.Kagan o‘zining “Muruvvatli imperiya” (The Benevolent Empire) nomli maqolasida shunday deydi: “AQSh global barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Bu o‘zini tanho qutqaruvchi emas, balki erkin dunyoning asosi sifatida ko‘rish imkonini beradi”[3]. Bu konsepsiya kuch vositasidagi axloqiy ustunlikni asoslashga urinish edi. Ushbu maqolada Kagan AQShning global barqarorlikni ta’minlashdagi rolini ta’kidlaydi va mamlakatning o‘zini tanho qutqaruvchi emas, balki erkin dunyoning asosi sifatida ko‘rish zarurligini ta’kidlaydi.

1990-yillardan boshlab neokonservativ chaqiriqlar kuchayib, Pol Vulfovits tomonidan 1992-yilda ishlab chiqilgan “Hukmronlik strategiyasi” Yaqin Sharqdagi qurolli aralashuv zaruratini asoslashga qaratildi. Strategiya bo‘yicha, Fors ko‘rfazidagi neft zaxiralari kabi tabiiy resurslarni nazorat qilish va global raqobatchilar paydo bo‘lishining oldini olish AQShning asosiy vazifasi deb ko‘riladi. Shuningdek, A. Strausning “Unipolyarizm konsepsiyasi” XXI asrda bir qutbli jahon tartibi o‘rnatilishi zarurligini ta’kidlaydi, bu tartibning yetakchisi sifatida AQSh dunyo aholisining 70% va uning iqtisodiy salohiyatining katta qismini o‘z ichiga olgan “yagona makon”ni nazorat qilishi kerakligi aytiladi[4].

Global gegemonlik konsepsiyasining asosiy maqsadi, ayniqsa neokonservativ yondashuvlarda, dunyodagi tabiiy resurslar xususan, neft va gaz kabi strategik tabiiy zaxiralarga to‘siqsiz kirish va ulardan ustunlik bilan foydalanishni ta’minlashdir. Bu ustunlikni saqlab qolish va mustahkamlash uchun zarurat tug‘ilganda harbiy aralashuv va urushga kirish ham asoslangan. Ammo bu yondashuv, ayniqsa, neokonservativ “aql markazlari” orqali targ‘ib etilgan global hukmronlik siyosati, jahon hamjamiyati tomonidan har doim ijobiy baholanmaydi.

“Sovuq urush”dan keyingi davrda AQSh tashqi siyosatining barqaror emasligi, tez-tez va keskin o‘zgaruvchan qarorlar qabul qilinishi, ko‘plab davlatlar va ekspertlar o‘rtasida ishonchsizlik va ikkilanishlarga sabab bo‘ldi.

1990-yillarning boshida, Sovet Ittifoqi tarqab ketgach, AQSh iqtisodiy, texnologik, madaniy va harbiy jihatdan yagona qudratli davlatga aylandi. Shu davrda siyosiy doiralarda AQSh oldida muhim dilemma paydo bo‘ldi: Birinchi variant – harbiy kuchlarni qisqartirib, ichki demokratiya va barqarorlikni mustahkamlash, “me’yoriy davlat”ga aylanish (J.Kirpatrik ta’kidlaganidek[5]). Ikkinchi variant – mavjud geosiyosiy bo‘shliqni to‘ldirish uchun yangi raqobatchilar va dushmanlar qidirish hamda dunyo hukmronligiga da’vogarlik qilish. Bu dilemma AQShning ikki partiyali boshqaruvi davrida ham dolzarbligicha qoldi, chunki ichki demokratik barqarorlik siyosati va tashqi siyosatda global gegemonlik yondashuvi parallel ravishda davom etdi. Neokonservatorlar bu holatni “bir qutbli vaziyat” deb atashadi. Ularning fikricha, AQShning global harbiy-siyosiy ustunligi tarixiy va madaniy-qadriyat asosida legitimdir. Ular bu ustunlikni ta’minlashni nafaqat zarurat, balki AQShning global tartibni saqlashdagi vazifasi sifatida ko‘radilar. Boshqa yirik davlatlar, jumladan Sovet Ittifoq (keyinchalik Rossiya Federatsiyasi) va Xitoy, neokonservativ nuqtai nazarga ko‘ra, global tartibni saqlashga tayyor emas. Ularning avtoritar boshqaruvi AQSh uchun real xavf va tahdid sifatida qabul qilinadi. Neokonservativ “aql markazlari” mazkur qarashlarni ilmiy asoslash va siyosiy strategiyalarga aylantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ular AQSh hukumatiga dunyo siyosatida “bir qutbli” vaziyatni saqlab qolish va global resurslar ustidan nazoratni mustahkamlash uchun agressiv siyosat yuritishni tavsiya qiladilar. Shu bilan birga, neokonservativ “aql markazlari” tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar va siyosiy hujjatlar (masalan, “Milliy xavfsizlik strategiyasi”, “Birlashgan yadroviy operatsiyalar doktrinasini”) ushbu yondashuvning amaliy ko‘rinishini ta’minlab, AQShning global geopolitik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Taniqli neokonservativ olim va siyosatchi Ch.Krautxammer AQShning global gegemonligini mustahkamlashga oid aniq tashvishlarini bildirgan. Krautxammer AQShning global hukmronligini “muruvvatli gegemonlik” deb atab, bu siyosat dunyoda barqarorlikni ta’minlashda zarur deb hisoblagan. Uning ta’kidlashicha, agar AQSh yetakchiligini qo‘llab-quvvatlovchi siyosat amalga oshirilmasa, jahondagi vaziyat 1914-yilda Birinchi jahon urushi boshlanishidan oldingi xavfli davrga qaytishi mumkin. Krautxammer AQSh fuqarolarining siyosiy ongiga ta’sir o‘tkazish va butun jahon hamjamiyatining e’tiborini AQShning global roli zarurligiga jalb qilish ustida faol ish olib borgan. Krautxammerning mashhur asarlaridan biri “The Unipolar Moment” (Yagona qutbli lahza) bo‘lib, bu maqolada u Sovuq urush tugagach, AQShning global siyosatda yagona superkuch sifatida paydo bo‘lishini tahlil qilgan va bu holatni maksimal darajada saqlash zarurligini ta’kidlagan[6].

Ch.Krauthammer o'zining 2004-yilgi "Democratic Realizm" nomli maqolasida liberallashtirilgan xalqaro hamkorlikning kuchsizlik belgisi ekanligini va AQSh uchun asosiy yo'nalish kuch ishlatish orqali tinchlikka erishish ekanligini ta'kidlaydi[7].

Umuman, ushbu konsepsiya neokonservativ mafkurada AQShning global hukmronligini "adolatli", "demokratik" va "xavfsizlikni ta'minlovchi" kuch sifatida tasvirlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv neokonservativ "aql markazlari" tomonidan ilmiy asoslangan va AQSh tashqi siyosatida ko'plab strategik qarorlar uchun nazariy poydevor bo'lgan.

AQSh neokonservativ mafkurasining markaziy g'oyalaridan biri "Amerika asri" yoki "Pax Americana" ("Amerika tinchligi") konsepsiyasini qurish imkoniyatiga bo'lgan qat'iy ishonchdir. Neokonservatorlar global siyosatda ko'p qutbli dunyo va ko'pmarkazlilik g'oyalariga qarshi chiqib, bunday tartibotning real va samarali bo'la olmasligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, "ko'p qutbli dunyo" modeli AQShdan tashqari boshqa davlatlar tomonidan teng huquqli hamkorlikka asoslangan global boshqaruv tizimi sifatida haqqoniy va samarali bo'la olmaydi[8]. Sababi, boshqa davlatlar hech bir to'lovsiz, ya'ni global inqirozlarni boshqarish va jiddiy xalqaro masalalarda javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyor emaslar. Bundan tashqari, neokonservatorlar "ko'pmarkazlilik"ni dunyo tartiboti uchun tartibsizlik manbai sifatida ko'radilar. Ular fikricha, ko'p markazli xalqaro tizimda mas'uliyatni bo'lishish yetarli emas, bu esa global tahdidlar va yangi chaqiriqlarga munosib javob berishni qiyinlashtiradi. Shu sababdan, neokonservativlar uchun yagona samarali va barqaror yechim – bu "muruvvatli global gegemonlik"dir. Ular AQShning global yetakchiligini nafaqat o'z manfaatlarini himoya qilish uchun, balki dunyo tinchligi, barqarorligi va global xavfsizlikni saqlash uchun zarur vosita deb hisoblaydilar. Bu yondashuv avvalo qurollanish raqobatini, avtoritar tuzumlar ta'sirining ortishini va yangi bloklar shakllanishini oldini olishda muhim deb ko'riladi.

Ekspertlarning fikricha, bir qutbli dunyo tartiboti qurish rejasi uzoq muddatli istiqbolga ega emas, biroq amalda hozirgi xalqaro siyosatda asosiy yo'nalish sifatida qabul qilingan. Siyosatshunos Ch. Krautxammer o'zining "The Unipolar Moment" maqolasida ta'kidlaganidek, AQSh global miqyosda yagona superqudrat sifatida, "tartibsizlikka qarshi yagona hal qiluvchi kuch" bo'lishi lozim, aks holda "dunyo yana ko'p markazli raqobatga qaytib, avvalgi urushlar va tartibsizliklarga yuz tutadi"[9].

Neokonservativ "aql markazlari"dan Amerika Tadbirkorlik Instituti, Meros Fondi va Gudzon Instituti kabi ilmiy-tahliliy muassasalar Krautxammer kabi yetakchilar tomonidan ilgari surilgan ushbu g'oyalarni ilmiy asoslash va siyosiy strategiyalarga aylantirishda faol ishtirok etadilar. Ularning yordami bilan, AQSh hukumati global gegemonlik siyosatini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun keng ko'lamli ommaviy axborot kampaniyalari, siyosiy tadbirlar va ekspert muhokamalarini tashkil qiladi.

Neokonservativ “aql markazlari” ushbu konsepsiyani rivojlantirish va unga asoslangan siyosatni ilgari surishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Yangi Amerika asri loyihasi(PNAC)ning “Rebuilding America’s Defenses” (2000) hujjatida “Pax Americana” bevosita tilga olinadi va uni saqlash uchun harbiy-modernizatsiya va doimiy aralashuv siyosati zarurligi aytiladi[10]. Yoki Amerika Tadbirkorlik Instituti(AEI) ham “Pax Americana”ni saqlash uchun strategiyalar ishlab chiqadi, global xavfsizlik siyosatini ilmiy asoslaydi va hukumat siyosatiga ta’sir ko‘rsatadi. Uning yetakchi tahlilchilari ishlarida ham ko‘rish mumkin. Meros Fondi va Gudzon Instituti ham “Pax Americana” konsepsiyasini siyosiy va ommaviy axborot maydonida targ‘ib qilishda faol. Ular AQShning global yetakchilik roli to‘g‘risida keng qamrovli tahlillar olib boradi va siyosiy hujjatlar tayyorlaydi[12]. Ushbu markazlarning ta’siri bilan AQSh siyosiy elitasida va ommaviy fikrda AQShning yagona global yetakchi sifatida roli mustahkamlanib bordi. Shu bilan birga, ular neokonservativ tashqi siyosatning harbiy aralashuvlarini ham asoslab berdi.

Umuman, neokonservativ “aql markazlari” tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalarda, AQSh milliy manfaatlarini himoya qilish va global tartibni saqlash uchun yagona yetakchi kuch bo‘lib qolishi zarurati asosiy o‘rin tutadi. Bu esa, ularning fikricha, dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashning eng ishonchli yo‘lidir. Shu tarzda, neokonservativ mafkura doirasida shakllangan AQShning global hegemonlik siyosati zahirida milliy manfaatlarini ta’minlash, harbiy qudratdan vosita sifatida foydalanish, iqtisodiy va energetik ustunlikni qo‘lga kiritish, demokratik qadriyatlar niqobi ostida mintaqaviy siyosiy tuzumlarni qayta shakllantirish kabi strategiyalar mujassamdir. Bunday yondashuvning ideologik asoslari, ayniqsa, PNAC, AEI, Gudzon Instituti kabi neokonservativ “aql markazlar” tomonidan ilgari surilgan yirik strategik hujjatlar va hisobotlarda hamda ularning yetakchi tahlilchilari ishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Neokonservativ “aql markazlar” tahlilchilari ishlarida hegemonlik g‘oyalarining yoritilishi

№	Mavzu	Manbalar
1	AQSh neokonservativizmida hegemonlik g‘oyasi asosiy mafkuraviy vosita sifatida	Kagan R. The benevolent empire // Foreign Policy. – 1998. – № 111. – P. 24-35. Project for the New American Century. Statement of Principles. – Washington, D.C., 1997.
2	Zamonaviy hegemonlik konsepsiyalari neokonservativlar ikkinchi avlodi tomonidan ishlab chiqilgan	Kristol I. Neoconservatism: The autobiography of an idea. – New York: Free Press, 1995. Project for the New American Century. Rebuilding America's defenses: Strategy, forces and resources for a new century. – Washington, D.C., 2000.
3	Hegemonlik g‘oyasining liberal va neokonservativ yondashuvlar asosida talqini	Dorrien G. Imperial designs: Neoconservatism and the new Pax Americana. – London; New York: Routledge, 2004.

		Boot M. The savage wars of peace: Small wars and the rise of American power. – New York: Basic Books, 2001.
4	“Muruvvatli gegemonlik” konsepsiyasining neokonservativ talqini	Krauthammer C. The unipolar moment revisited // The National Interest. – 2002. – № 70. – P. 5-17. Gerson M. The essence of neoconservatism // Commentary. – 2003. – Vol. 116, № 3. – P. 22-29..
5	Neokonservativ mafkura va AQSh tashqi siyosat strategiyasi	Halper S., Clarke J. America alone: The neo-conservatives and the global order. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. American Enterprise Institute. American power and the war on terror. – Washington, D.C., 2002.
6	Energetik xavfsizlik va tashqi siyosatdagi ekspansiv qarashlar	Klare M. T. Blood and oil: The dangers and consequences of America's growing petroleum dependency. – New York: Metropolitan Books, 2004. Project for the New American Century. Rebuilding America's defenses: Strategy, forces and resources for a new century. – Washington, D.C., 2000. – Bo‘lim: Persian Gulf and Energy Security.
7	AQShning xalqaro tashabbuslari va “yetakchilik imiji” muammosi	Ikenberry G. J. America unrivaled: The future of the balance of power. – Ithaca: Cornell University Press, 2002. Fukuyama F. After the neocons: America at the crossroads. – London: Profile Books, 2006.
8	Ikkiyoqlama standartlar va neokonservativ globallashuvning salbiy oqibatlari	Jentleson B. W. American foreign policy: The dynamics of choice in the 21st century. – New York: W. W. Norton, 2007. Chomsky N. Hegemony or survival: America's quest for global dominance. – New York: Henry Holt, 2003.

Xulosa. Xulosa qilganda, birinchidan, neokonservativizm mafkurasi AQSh tashqi siyosatida global gegemonlikni asoslash va targ‘ib qilishda asosiy g‘oyaviy manba sifatida shakllandi hamda “Pax Americana” konsepsiyasi Amerika yetakchiligini demokratik qadriyatlar, harbiy kuch va xalqaro xavfsizlikni ta’minlash orqali himoya qilishga qaratilganligi g‘oyasi mafkuraviy jihatdan asoslab berdi;

Ikkinchidan, PNAC, AEI va Gudzon Instituti kabi neokonservativ markazlar “Pax Americana” konsepsiyasini ilgari surishda asosiy ro‘l o‘ynab, uni AQShning global hegemonligi uchun strategik asos sifatida mustahkamladi. Shu bilan birga tashqi siyosiy qarorlar qabul qilinishida vositachilik qiluvchi strategik aktorlarga aylandi. Ushbu markazlar geosiyosiy va harbiy ustunlikni asoslovchi konsepsiyalarni ishlab chiqib, AQShning xalqaro siyosatdagi “muruvvatli gegemon” sifatidagi pozitsiyasini nazariy jihatdan mustahkamladi;

Uchinchidan, neokonservativ “aql markazlar” o‘zining tahliliy salohiyati va siyosiy ta’sir vositalari orqali “Pax Americana” konsepsiyasini davlat siyosatiga singdirishda muhim institut sifatida xizmat qildi. Neokonservativ “aql markazlar” tomonidan ilgari surilgan siyosiy

konsepsiyalar, jumladan kuch orqali demokratiyani yoyish va oldindan zarba berish (preemptive strike) strategiyalari, “Pax Americana” konsepsiyasining amaliy ifodasi bo‘ldi.

Umuman olganda, neokonservativ “aql markazlar”ining faoliyati XX asr oxiri va XXI asr boshlarida AQShning global yetakchilik strategiyasini, xususan, “Pax Americana” g‘oyasini shakllantirish va rivojlantirishda markaziy o‘rin tutgan. “Pax Americana” g‘oyasi neokonservativ “aql markazlar” ta’sirida AQSh tashqi siyosatining asosiy poydevoriga aylangan bo‘lib, xalqaro tartibotni AQSh markazida shakllantirish va saqlab qolishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Шаклеина Т.А. Современные американские концепции мирового лидерства. – М.: ИСКРАН, 1999. – 274 с.
2. Шаклеина Т.А. Россия и США в новом мировом порядке. – М.: ИСКРАН, 2002. – 312 с.
3. Kagan R. The benevolent empire // Foreign Policy. – 1998. – No. 111. – P. 24–35.
4. Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. – Т.:Akademiya, 2007. – Б.100.
5. Блохин К. Американский неоконсерватизм – идеология слабющего гегемония // Проблемы национальной стратегии. – 2017. – №3(42). – С.45.
6. Krauthammer C. The Unipolar Moment // Foreign Affairs. – 1990. – Vol. 70, No. 1. – P. 23–33.
7. Krauthammer C. Democratic Realism // The Weekly Standard. – 2004. – April 22.//<https://www.weeklystandard.com/charles-krauthammer/democratic-realism>.
8. Kagan R. The Benevolent Empire // Foreign Policy. – 1998. – P.24-35.
9. Krauthammer C. The Unipolar Moment // Foreign Affairs. – 1990. – Vol.70, No.1. – P.23–33.//<https://www.foreignaffairs.com/articles/1990-02-01/unipolar-moment>.
10. Project for the New American Century. Rebuilding America's Defenses: Strategy, Forces and Resources for a New Century. – Washington, DC: Project for the New American Century, 2000. – 76 p.
11. Rubin M., Pletka D. Confronting Iran: The Failure of American Foreign Policy and the Next Great Conflict in the Middle East. – Washington, DC: AEI Press, 2008. – 240 p.
12. Abrams E. Leadership for America: Restarting the Freedom Agenda– Washington, DC: Foreign Policy Initiative, 2012. //<https://www.foreignpolicyi.org/content/leadership-america-restarting-freedom-agenda>.
13. Блохин К. В. Американский неоконсерватизм и крах PAX AMERICANA. Роль политической элиты в упадке американского могущества. – М.: Издательство «Весь Мир», 2021. – 11 с.